

Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash  
markazi direktorining  
2024-yil “12” iyldagi  
127- son xatiga  
ILOVA

## **Nomoddiy madaniy meros targ‘iboti bilan bog‘liq foto va video tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom Nomoddiy madaniy meros targ‘iboti bilan bog‘liq foto va video tanlov (keyingi o‘rinlarda – Tanlov)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.
2. Tanlovda barcha ijodkor yoshlar ishtirok etishlari mumkin.
3. Tanlov har yili an’anaviy tarzda avgust oyida o‘tkaziladi.
4. Tanlovning asosiy tashkilotchisi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hisoblanadi.

#### **2-bob. Tanlovning maqsad va vazifalari**

5. Tanlov milliy nomoddiy madaniy merosimizni keng ommaga targ‘ib etgan holda, ularni yanada rivojlantirish, qadimiy va milliy an’analarni o‘sib kelayotgan yosh avlodga yetkazish maqsadida tashkil etiladi.

6. Ushbu Tanlovning vazifasi media sohada ijod qilayotgan yosh ijodkorlarni izlab topish, ularni qo'llab-quvvatlash hamda muntazam rag‘batlantirib borishdan iborat.

#### **3-bob. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi**

7. Tanlov ikkita yo‘nalish bo‘yicha o‘tkaziladi;

**birinchi yo‘nalish** – nomoddiy madaniy meros targ‘iboti bilan bog‘liq foto mahsulotlar;

**ikkinchi yo‘nalish** – nomoddiy madaniy meros targ‘iboti bilan bog‘liq video mahsulotlar.

8. Tanlov ishtirokchilari har bir yo‘nalish bo‘yicha alohida baholanadi va taqdirlanadi.

9. Tanlov quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

1-bosqich – tanlov tashkilotchisi har yili **iyul oyining 15-sanasiga qadar** tanlov haqidagi e’lonni ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalariga joylashtiradi.

Tanlov haqidagi e'londa arizalarni shakllantirish, ro'yxatdan o'tkazish hamda foto va video mahsulotlarni ishchi guruhga taqdim etish tartibi, muddati va talablari ko'rsatiladi;

2-bosqich – talabgor o'zi tayyorlagan nomoddiy madaniy meros targ'iboti bilan bog'liq foto va video mahsulotlarni **avgust oyining 10-sanasiga** qadar tashkilotchilarga elektron tarzda taqdim etadi;

3-bosqich – Tashkilotchilar tanlovga taqdim etilgan foto va video mahsulotlarni har yili **avgust oyining 15-sanasiga** qadar ushbu Nizom talablari asosida hakamlar hay'atiga taqdim etadi;

4-bosqich – hakamlar hay'ati har yili **avgust oyining 20-sanasiga** qadar foto va video mahsulotlarni ko'rib chiqadi va ular hay'at a'zolarining ochiq ovoz berishi orqali baholanadi;

5-bosqich – hakamlar hay'ati tomonidan tavsiya etilgan ishtirokchilar tanlov tashkilotchilari tomonidan qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

#### **4-bob. Hakamlar hay'ati vakolatlari va ishtirokchilarni baholash mezonlari**

10. Hakamlar hay'ati tarkibi ijodiy-ishchi guruh tomonidan shakllantiriladi.

11. Hakamlar hay'ati tanlovga kelib tushgan mahsulotlarniadolatlilik, shaffoflik va mazkur Nizomda belgilangan baholash mezonlariga rioya qilgan holda ko'rib chiqadi va baholaydi.

12. Hakamlar hay'ati a'zolari ishtirokchilarni baholashda mustaqildir.

13. Hakamlar hay'ati a'zolarining baholash jarayoniga boshqa shaxslar tomonidan aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

14. Hakamlar hay'atining qaroriga ko'ra har bir yo'naliш bo'yicha eng yuqori ball to'plagan 3 nafardan ishtirokchilar taqdirlanadi.

15. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan foto va videomahsulotlar quyidagi mezonlar asosida saralab olinadi:

davlat va jamoatchilik tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning aks ettirilganligi;

foto va video mahsulotlarining ijtimoiy ahamiyati, tanlangan mavzularning ommabopligi;

nomoddiy madaniy meros targ'iboti bilan bog'liq yangicha yondashuvlar qo'llanilganligi.

#### **5-bob. Tanlov g'oliblarini taqdirlash**

16. Tanlovda belgilangan har bir yo‘nalish bo‘yicha g‘olib deb topilgan ishtirokchilar hakamlar hay’atining yig‘ilish qarori bilan tasdiqlanadi.

17. Tanlov g‘oliblari tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

#### **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

18. Mazkur Nizomga tashkiliy qo‘mita tomonidan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.